

## МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ ТАШКИЛОТЛАРИДА РАҲБАРЛАРИНИНГ ПЕДАГОГИК МАХОРАТНИ ОШИРИШ ВА РИВОЈЛАНТИРИШ

*Karimova Laylo Ilxomovna*

*Xorazm viloyati Gurlan tumani 11-DMTT direktori*

**Annotatsiya.** Bu maqolada maktabgacha ta'lismida olib borilayotgan o'zgarishlar, islohotlar va innovatsion yondashuvlar va ta'lindan samaradotligini oshirish haqida aytib o'tilgan. Bundan tashqari ta'linda pedadog tarbiyachi, muallimlarning pedagogik mahoratini oshirish ma'lumotlar keltirilgan.

**Аннотация.** В данной статье говорится об изменениях, реформах и инновационных подходах в системе дошкольного образования и повышении эффективности образования. Кроме того, имеется информация о повышении педагогического мастерства педагогов и учителей образования.

**Abstract.** This article talks about the changes, reforms and innovative approaches in the preschool education system and improving the effectiveness of education. In addition, there is information on improving the pedagogical skills of pedagogues and teachers in education.

**Kalit so'zlar:** ta'lismi, samaradorlik, bolalar, pedagog tarbiyachi, ta'lim jarayonlari, pedagogic mahorat, pedagogic texnika.

**Ключевые слова:** образовательная система, эффективность, дети, педагог-воспитатель, образовательный процесс, педагогическое мастерство, педагогическая техника.

**Key words:** educational system, efficiency, children, teacher educator, educational processes, pedagogical skill, pedagogical technique.

Boshqaruv jarayonini psixologik tahlil rahbarning faoliyatini takomillashtirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Mazkur maqsadni amalga oshirish uchun rahbarga qo'yiladigan talablar, ularni bajarishga moyillik va boshqaruv faoliyatini to'laqonli amalga oshirishga to'sqinlik qiluvchi shaxs xususiyatlarini o'rghanish zarurati tug'iladi.

**Rahbar yoshi.** Boshqaruv faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirishning rahbar yoshiga bog'liqligi rivojlangan mamlakatlar tadqiqotlariga asoslanadi. Aniqlanishicha, Yaponiya qayta ishlab chiqarish rahbarlarining o'rtacha yoshi 63,5 bo'lsa, shu toifa amerikalik rahbarlarning yoshi 59 da ekan. Yaponiya yirik ompaniya rahbarlarini o'rghanishda uchraydigan va taajjublanarli jihatlardan biri, ularning yoshi ulug'lidir. Shunga ko'ra axborotlashtirish yoki axborotli malakaning asosiy maqsadi egallanadigan ixtisoslik shaxsiy intellektual faoliyat mazmunida yangi axborot texnologiyalaridan foydalanish yordamida ta'lindan samaradorligini oshirish, o'qitish jarayonini to'liq axborotlashtirish imkoniyatlariga ega bo'lish va shu asosda ilmiy-

texnikaviy taraqqiyot natijalarini o‘quv-tarbiya jarayoniga keng tadbiq etishni nazarda tutadi. Individual ta’lim bir qator afzalliklarga ega, shuning uchun bu usuli bizning davrimizgacha repetitorlik shaklida saqlanib qolgan.

Pedagogik mahorat rahbar va tarbiyachilarga pedagogik ijodkorlik, pedagogik texnika, ta’lim - tarbiya jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchilarining o‘zaro hamkorligi, muloqot olib borish taktikasi, nutq madaniyati, tafakkuri, tarbiyachining ma’naviy-ma’rifiy va tarbiyaviy ishlarini tashkil etish va amalga oshirish, bu jarayonda xulq-atvori va hissiyotni jilovlay olish xususiyatlarini o‘rgatadi va o‘z kasbini rivojlantirib boruvchi pedagogik faoliyatlar tizimi to‘g‘risida ma’lumotlar beradi. Pedagogik mahorat rahbarning pedagogik faoliyati zamirida takomillashib boradi. O‘qituvchi mahorati uning faoliyatida ko‘rinadi. O‘qituvchi avvalo pedagogik jarayonning qonuniyatlari va mexanizmlarini yaxshi egallagan bo‘lishi lozim. Shu ma’noda pedagogning umumlashgan malakalari va uning pedagogik texnikasi katta ahamiyatga molik bo‘ladi. Biroq mahorat - bu alohida qudrat. Yuqori va kichik darajada Usta bo‘lishi mumkin emas. Mahoratga erishish ham, erishmaslik ham mumkin. Yosh rahbar boshqaradigan tashkilotdagi xodimlarning o‘rtacha yosh ko‘rsatkichi ko‘pincha past bo‘ladi. Yoshlik (30–35 yosh atrofida) bu yangilik va kashfiyotlarga moyillik, moslashuvchanlik bilan ifodalanadi. Afsuski, bunday tashkilotda katta yoshdag (40–45 dan yuqori) aniqlanishicha, inson 35–55 yoshlarida o‘z kasbining mohir ustasiga aylanadi, o‘z sohasidagi bilimni yaxshi egallaydi va ixtirolarni joriy etishga o‘zida ishtiyoq sezadi. Shu bilan birga, unda vaziyatni sovuqqonlik bilan tahlil etish, vazminlik kayfiyati shakllanadi.

Haqiqiy usta mehnat faoliyati chog‘idagina go‘zaldir. Pedagogik mahorat tizimi quyidagi o‘zaro bir-biri bilan bog‘liq bo‘lgan asosiy komponentlardan iborat:

- Pedagogik insonparvarlik talablariga bo‘ysunishi.
- Kasbga oid bilimlarni boshqa fanlar bilan aloqadorlikda mukammal bilish.
- Pedagogik qobiliyatga ega bo‘lish.
- Pedagogik texnika sirlarini puxta egallah.

Individual-guruhli shaklining mazmuni mashg‘ulotlarni tarbiyachilar bir bola bilan emas, balki tayyorlik darajasi turlicha bo‘lgan teng yoshdagি bolalar guruhi bilan olib borishidan iborat edi. Pedagog navbat bilan har bir boladan o‘tilgan materialni so‘raydi, yangi savollarni tushuntiradi, mustaqil ishlash uchun individual topshiriqlar beradi, qolgan bolalar o‘z ishlari bilan shug‘ullanadilar. Mashg‘ulotlarni bunday tashkil etishda, bolalar mashg‘ulotlarga yilning turli davrlarida hamda kunning turli vaqtlarida kelishlari mumkin bo‘lgan. XX asr 20-yillarda maktab ishlari Ilmiy tekshirish instituti ta’limning loyihali tizimini targ‘ib qila boshladi. Uni amerikalik U.Kilpatrick ishlab chiqqan. O‘qitish bu tizimining mazmuni pedagog xodimlarning o‘zlarini loyiha ishlari mavzuni tanlab olishlaridan iborat. Hozirgi kunda MTTlarida faoliyatlar“ Ilkqadam” davlat o‘quv dasturi asosida olib boriladi. Bu o‘rinda shuni

aytish joizki, bolalar faoliyatida asosiy o'rinni o'yin tashkil etadi. Ya'ni har birtarbiyachi faoliyatlarni o'yin orqali tashkil etib, bolaga ta'lim –tarbiyaviy jarayonni tashkil etsa, bola mavzuni tez anglab oladi, hamda unda jamoa bo'lib ishslash, tengdoshlaribidan fikr almashish va ular bilan do'stona munosabatda bo'lish tuyg'ulari shakllanadi. Bu jarayonda tarbiyachining mahorati asosiy o'rin egallaydi. Biror faoliyatning muvaffaqiyatlari, mustaqil va mukammal bajarilishini ta'minlaydigan noyob qobiliyatlar birikmasi talant deyiladi. Pedagogik qobiliyatning quyidagi asosiy sifatlari ajratib ko'rsatilgan:

- O'z kasbiga muhabbat, o'quvchilarni seva olishi.
- Mutaxassislik fanini mukammal bilishi, unga qiziqishi.
- Pedagogik taktga (odob va go'zallikka) ega bo'lish.
- Bolalar jamoasiga singib keta olish.
- O'z mehnatiga ijodiy yondashish.
- Javobgarlikni his etish.
- Tarbiyaviy bilimlarni egallaganligi.

**Pedagogik texnika** - rahbarning nafaqat ta'lim-tarbiya jarayonida, balki butun kasbiy faoliyatida zarur bo'lgan umumiy pedagogik bilim va malakalari majmuidir. Pedagogik texnikaning muhim jihatlari - bu avvalo, o'qituvchining mahoratini belgilovchi kasbiy ko'nikmalar hisoblanadi, ya'ni uning savodli va ifodali so'zlay olishi, o'z fikr-mulohazasini va bilimini tushunarli tilda ta'sirchan bayon qilishi, histuyg'u sini jilovlay olishi, o'zining shaxsiy xususiyatlariga xos mimik va pantomimik qobiliyatlarga ega bo'lishi, aniq imo-ishora, ma'noli qarash rag'batlantiruvchi yoki istehzoli tabassum, so'zning cheksiz qudrati orqali o'quvchilar ongiga va tafakkuriga ta'sir o'tkazishi, hozirjavoblik, psixologik bilimlarga ega bo'lishi kabilardir. Yurtimiz jadal sur'atlarda rivojlanib borayotgan bu davrda, uning gullab-yashnashi, rivojlanishi, farovonligi uchun o'z kasbining mohir mutaxassisi bo'lmish, yosh kadrlarimizning o'rni muhim ahamiyatga egadir. Shunday ekan, maktabgacha va boshlang'ich ta'lim orasidagi ko'priksi mustahkamroq qilib qurishimiz, ta'limning sifat samaradorligiga innovatsion yo'llar orqali erishishimiz lozim. Buning uchun pedagoglardan juda katta mas'uliyat talab etiladi.

Ma'lumki, o'quv mashg'ulot jarayonida qo'llaniladigan pedagogik va informatsion texnologiyalar bir necha turlarga bo'linib, ulardan eng muhimi — kompyuter texnikasi vositalari yordamida ta'lim berishdir. SHundan kelib chiqib, elektron mashg'ulotlar, mashg'ulot ishlanmalari va elektron o'yinlar orqali ham ta'lim samaradorligini oshirish mumkin. Hozirgi kunda sinovdan o'tgan maxsus axborot vositalari: kompyuter texnikalari, audio va video vositalari qatoriga kelib qo'shilgan elektron ta'lim resurslari, virtual stendlar, animatsiyali dasturlar vositasida dars mashg'ulotlarini olib borish talabalar tomonidan dars mashg'ulotlarini o'zlashtirishlariga samarali natijalar berib borishi tayindir.

Pedagogik mahoratni oshirishda raqamli ta’lim resurslari yordamida mashg‘ulotlarni tashkil etish jarayoni, bunda bolaning olayotgan bilimlarini na faqat eshitish, balki ko‘rish sezgilari orqali ham qabul qilishlari va tushunchalarning g‘oya va mazmunini chuqur anglab etishlariga samarali yordam beradi. Qator mualliflar tomonidan turli elektron o‘qitish vositalari yordamida mavzularning yoritilishni joriy etib borilayotganligi, bunda bolalarning bilim saviyalarining oshib borayotganligini bevosita ishonch hosil qilish mumkinki, bu usullarning yanada takomillashtirilishi, yuqori pog‘onaga olib chiqish kabi zaruratlar oldindan ko‘rib, shu yo‘sinda ta’lim va tarbiya jarayonini tashkil etish har bir rahbar hamda pedagogning dolzab vazifasi bo‘lishi talab etiladi.

Pedagogik texnika tushunchasi ikkita guruhgaga bo‘linadi: Birinchi guruh o‘qituvchining shaxsiy axloqiy fazilatlari va xulqi bilan bog‘liq bo‘lib, ta’lim-tarbiya jarayonida o‘z-o‘zini boshqarish malakalarida (refleksiya) namoyon bo‘ladi. Ularga ta’lim-tarbiya jarayonida o‘z xatti-harakatlarini boshqarishi, (mimika, pantomimika), o‘z hissiyotini va kayfiyatini jilovlay olishi va turli nojo‘ya ta’sirlarga berilmaslik, mukammal ijtimoiy perseptiv qobiliyatlar (diqqat, kuzatuvchanlik, xayol), nutq texnikasini bilishi va o‘z o‘rnida qo‘llay olish kabilalar kiradi.

Rahbar pedagogik faoliyatida nutq texnikasini mukammal egallah shumuhim ahamiyatga ega. Zero, nutq vositasida tarbiyachi bolaning his-tuyg‘ularini uyg‘otadi, o‘quvchilar bilan ongli muloqotni ta’minlaydi, ta’lim-tarbiyaga oid ma’lumotlami tahliliy idrok etadi. Pedagogik nazokat boshqacha qilib aytganda pedagogik takt o‘qituvchi axloqiyma’naviy qiyofasini namoyon etuvchi me’yor tuyg‘usi, xulq va odob qoidalariga rioya qilishi demakdir. Pedagogik nazokat o‘qituvchining o‘quvchilar bilan o‘zaro munosabatini tashkil qilish vositasi. Psixologik til bilan aytilganda, nazokat insonning bir qolipdagi barqaror tasavvurlarida mujassamlashgan shaxsiy insoniy hislatlarining yig‘indisidir.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

- 1.V.Grosheva, L.G.Yevstafeva, D.T.Maxmudova, Sh.B.Nabixanova, S.V.Pak, G.E.Djanpeisova ”Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi T:2018.1-81-b;
- 2.F.Qodirova, SH.Toshpo‘latova, M.A’zamova. “Maktabgacha pedagogika”.-T., “Ma’naviyat”.3.Sh.
3. A.Sodiqova “Maktabgacha pedagogika” .“Tafakkur sarchashmalari” T:.2013
4. N.M.Qayumova“ Maktabgacha pedagogika”.“TDPU”nashriyoti T:.2013
- 5.Usmonov M. Interaktiv elektron o‘quv kurslar — o‘qitish faoliyatining yangi vositasi sifatida. //”Xalq ta’limi” jurnali, 2013, 5-sон.